

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

FARMATSEVTIKA JURNALI

Jurnalga 1992-yilda asos solingan
Yilda 6 marta chiqadi

PHARMACEUTICAL JOURNAL

Founded in 1992
Published 6 times a year

№1. 2025

ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

Основан в 1992 г.
Выходит 6 раз в год

UROLOGIK DORI VOSITALARNING MARKETING TAHLILI

**Yunusxojiyeva Nigora Elmurod qizi¹,
Madatova Nazira Abdugaffarovna²,
Xusainova Rayxona Ashrafovna¹**

¹Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

²Alfraganus universiteti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

e-mail: xusainova_79@inbox.ru

O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestrlari: 2020 yil 24-, 2021 yil 25-, 2022 yil 26-, 2023 yil 27- va 2024 yil 28-son ma'lumotlari va DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan urologik dori vositalarining marketing tahlili o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida urologik dori vositalarni ro'yxatga olinishini tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda mahalliy, yuqori samarali urologik dori vositalarini ishlab chiqish va sanoat miqyosida ishlab chiqarishga joriy etish juda dolzarb va istiqbolli vazifalardan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: assortiment tahlil, urologik dori vositalar, DRUG AUDIT, dori vositalari, farmatsevtika bozori.

Urologik kasalliklar qatoriga urolitiyoz, erkaklarning bepustligi, prostatit, erektil disfunktsiya, buyrak va peshob yo'llarining yuqumli kasalliklari va boshqalar kiradi [2]. Bular ichida bakterial infeksiyaga kiradigan sistit kasalligi dunyo bo'yicha eng keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi. Dunyo statistikasi bo'yicha birgina Amerika Qo'shma Shtatlarida har yili taxminan 11 millionga yaqin holat aynan shu kasalliklar qayd etilgan va uni davolash uchun xarajatlar taxminan 5 milliard dollarlarni tashkil qilgan [1,2]. Rossiya Federatsiyasida esa yiliga 26-36 million sistit holatlari qayd etiladi. Peshob yo'llari shamollashi infeksiyali yallig'lanish kasalligi bilan ayollarning deyarli 20-25 foizi hayoti davomida kasallanadi, ularning har uchdan birida bir yil ichida kasallikning qaytalanishi va 10 foizi surunkali takrorlanuvchi shakliga ya'ni o'tkir sistitga aylanishi kuzatilgan[4].

Shuni ta'kidlash kerakki peshob-tanosil a'zolari, ayniqsa, peshob chiqarish yo'llari organizmga kiradigan infeksiyalar uchun eng katta darvozalardan biri hisoblanadi. Bu a'zolardagi patologik jarayonlarga vaqtida chora ko'rilmasa rivojlanib yuqoriga ko'tarilishi va hayotiy muhim a'zolari shikastlashi mumkin [3]. Shu sababli peshob chiqarish yo'llarining yuqumli yallig'lanish kasalliklarini, xususan, sistitni aniq tashxislash va ularni kerakli dori darmonlar bilan davolash zarurati bemorlar uchun ham, butun jamiyat uchun ham katta ahamiyatga ega. Urologik kasalliklar bilan xususan, sistit bilan og'rigan bemorlarni davolashda sintetik va tabiiy dori preparatlar bilan davolash hozirgi kunda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston Farmatsevtik bozorida mavjud urologik dori vositalarini assortiment tahlili-

ni olib borish, xorijdan keltirilgan dori vositalarini o'rnini bosuvchi urologik dori vositalarining keng assortimentini ishlab chiqish va tibbiyotga joriy qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga kiradi [5,6,7].

Tadqiqot maqsadi. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan urologik dori vositalarining 2020-2024 yillar uchun assortiment tahlili o'tkazish.

Tadqiqot usullari: Tahlil jarayonida obyekt sifatida O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24-son, 2021 yil 25-son, 2022 yil 26-son, 2023 yil 27-son va 2024 yil 28-son O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestri asosida assortiment tahlilidan va DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida tahlillardan foydalanildi.

Natijalar va muhokamalar. Urologik dori vositalarining assortiment tahlili O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestri asosida olib borildi. 2024 yildagi 28-sonli Davlat reyestriga umumiy 38 nomdagi urologik dori vositalari kiritilgan. Ulardan 3 nomda (7,9%) dori vositalari mahalliy farmatsevtik korxonalari ulushiga, 5 nomdagi (13,2%) dori vositalari MDH mamlakatlari ishlab chiqaruvchilari ulushiga va 30 nomdagi (78,9%) dori vositalari ishlab chiqaruvchi xorijiy davlatlarning ulushiga to'g'ri keladi [8,9].

Oxirgi 5 yildagi ko'rsatkichlarning taqqoslash natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2020-2022 yillarda xorijiy davlatlardan keltirilayotgan va mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan urologik dori vosita-

lar soni yildan-yilga ortib borgan, 2023 yilda ro'yxatdan o'tkazilgan urologik dori vositalarining ulushi kamaygan.

2020 yildagi ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston hududida umumiy 34 nomda urologik dori vositalari ro'yxatdan o'tkazilgan. Ushbu dori vositalardan 2 nomdagi (5,9%) mahalliy ishlab chiqaruvchilar, 28 nomdagi (82,4%) xorijiy davlatlar ishlab chiqaruvchilari va 4 ta dori vositasi (11,7%) MDH davlatlari ishlab chiqaruvchilari ulushiga to'g'ri kelgan. Natijalardan ko'rinib tu-

ribdiki, 2020 yilda urologik dori vositalarining salmoqli qismi xorijiy davlatlar tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan [10,11].

Tahlilimizni keyingi bosqichida urologik dori vositalarining 2020-2024 yillarda dori shakli bo'yicha tahlili amalga oshirildi (2-jadval). Ushbu tahlil asosida olingan natijalardan mahalliy farmatsevtik korxonalar tomonidan kelajakda qanday dori shaklidagi urologik dori vositalarini ishlab chiqarilishi kerakligi haqida ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin.

1-jadval

Urologik dori vositalarining 2020-2024 yillar Davlat Reyestri bo'yicha tahlil natijalari

Yillar	O'zbekiston		MDH		Xorijiy davlatlar		Umumiy
	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni
2020	2	5,9	4	11,7	28	82,4	34
2021	1	2,9	4	11,8	29	85,3	34
2022	1	2,5	5	12,5	34	85	40
2023	2	5,8	5	14,2	28	80	35
2024	3	7,9	5	13,2	30	78,9	38

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2020 yilda ro'yxatdan o'tkazilgan urologik dori vositalar orasida dorivor o'simliklar xomashyosi, eritma kabi dori shaklidagilarini kuzatgan bo'lsak, 2024 yilga kelib shamcha, infuziya uchun kukun va suspenziya dori shaklidagi urologik dori vositalarini miqdorini ortganini ko'rishimiz mumkin.

Tahlilning keyingi qismida, 2020-2024 yillardagi urologik dori vositalarining ishlab chiqaruvchi davlatlar kesimida o'zgarishlarini tahlil qilindi. Tahlil natijalari 1-rasmda keltirilgan.


1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda Niderlandiya va AQSh davlatlarida ishlab chiqarilgan urologik dori vositalar ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib ushbu davlatlar o'rnini Rossiya va Irlandiya kabi davlatlarda ishlab chiqarilgan urologik dori vositalar egalagan.

Tadqiqotning keyingi qismida urologik dori vositalarining 2020-2023 yillardagi DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida tahlilini o'tkazildi. DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida urologik dori vositalarining tegishli yillar davomida O'zbekiston bozoriga olib kirilgan va ishlab chiqar-

2-jadval

2020-2024 yillarda ro'yxatdan o'tgan urologik dori vositalarning dori shakllari bo'yicha tahlil natijalari


Dori shakli	Ro'yxatdan o'tgan dori vositalar soni				
	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Tabletka	13	12	14	13	15
Suspenziya	2	3	4	4	4
Tomchi	3	4	4	3	2
Kapsula	5	7	8	7	9
Pasta	1	1	1	1	1
Granula	3	3	3	3	2
Sirop	3	4	4	2	2
Kukun	-	-	1	1	1
Infuziya uchun kukun	-	-	1	1	1
Shamcha	-	-	-	-	1
Eritma	3	-	-	-	-
Dorivor o'simlik	1	-	-	-	-
Umumiy soni	34	34	40	35	38



1-rasm. 2020-2024 yillarda ro'yxatdan o'tgan urologik dori vositalarning ishlab chiqaruvchi davlatlar bo'yicha tahlil natijalari

rilgan hajmini va ushbu dori vositalarining pul ko'rinishidagi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Tahlil natijalari 2-rasmda keltirilgan.

2-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, 2020-2023 yillarda O'zbekiston bozoridagi urologik dori vositalarining hajmi ham miqdoriy, ham summaviy ko'rinishda ortib borgan.



2-rasm. Urologik dori vositalarining 2020-2023 yillarda O'zbekiston bozoridagi hajmi (DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida)

Xulosa. Natijalardan ko'rinib turibdiki, 2020 yilda Niderlandiya va AQSh davlatlarida ishlab chiqarilgan urologik dori vositalar ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib ushbu davlatlar o'rnini Rossiya va Irlandiya kabi davlatlarda ishlab chiqarilgan urologik dori vositalar egallaganligi hamda, O'zbekiston bozoriga olib kiritilgan va ishlab chiqarilgan hajmini va ushbu dori vositalarining pul ko'rinishidagi miqdori 2020-2023 yillar orasida 8-10 % oshganini ko'rish mumkin. Xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan urologik dori vositalari mahalliy bozorda dori shakli, turi va soni jihatidan ertakchilikni egallayotgan bo'lsa-da, yil sayin mahalliy ishlab chiqaruvchi farmatsevtik korxonalar tomonidan ham ishlab chiqarilayotgan urologik dori vositalarning ulushi yil sayin ortib bormoqda. Hozirda bozorda mavjud bo'lgan urologik dori vositalarning kattagina qismini xorijiy farmatsevtik korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalari tashkil qilmoqda. Bundan tashqari mahalliy bozorda mavjud bo'lgan va chetdan olib kelinayotgan urologik dori vositalarining ayrim dori shakllarida (pasta, sirop va suspenziyalar) ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, mahalliy farmatsevtik korxonalar tomonidan urologik dori vositalarni yangi farmakologik guruhlarini va yangi dori shakllarida ishlab chiqarishga joriy etish juda dolzarbdir.

Адабиётлар

1. Griebing TL. Urologic diseases in America project: trends in resource use for urinary tract infections in women. *J Urol* 2005;173(4):1281-1287. <https://doi.org/10.1097/01.ju.0000155596.98780.82>.
2. Foxman B. Urinary tract infection syndromes: occurrence, recurrence, bacteriology, risk factors, and diseases burden. *Infect Dis Clin North Am* 2014;28(1):1-13. <https://doi.org/10.1016/j.idc.2013.09.003>.
3. Foxman B. Recurring urinary tract infection: incidence and risk factors. *Am J Public Health* 1990;80(3):331-333. <https://doi.org/10.2105/ajph.80.3.331>.
4. Скрыбин Г.Н., Александров В.П., Коренков Д.Г., Назаров Т.Н. Циститы. Учебное пособие. Санкт-Петербург, 2006; 127 с. [Skryabin G.N., Aleksandrov V.P., Korenkov D.G., Nazarov T.N. Cystitis. Tutorial. St. Petersburg, 2006; 127 p. (In Russian)]
5. Мадатова Н. А., Тоштемирова Ч. Т. МАРКЕТИНГОВЫЙ АНАЛИЗ ПРОТИВОДИАРЕЙНЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ //Universum: медицина и фармакология. – 2024. – №. 4 (109). – С. 46-53.
6. Rizaeva N.M., Madatova N.A. O'zbekiston respublikasida qayd etilgan biologik faol qo'shimchalar assortiment tahlili // Eurasian journal of medical and natural sciences. -2024.-Vol.4.-Issue 1,Part 2.-P.191-197.
7. Madatova N. A., Qambarov X. J. ADAPTOGEN DORI VOSITALARNING BOZORINI MARKETING Tahlili //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2024. – Т. 4. – №. 5 (Speciaial Issue). – С. 93-94.
8. O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestri. - №24. - 2020. 1183 b.
9. O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestri. Yigirma beshinchi nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan - Toshkent. -2021. -1068 b.
10. O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestri. - №26. - 2022. 1180 b.
11. O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestri. - №27. - 2023. 1053 b.

МАРКЕТИНГОВЫЙ АНАЛИЗ УРОЛОГИЧЕСКИХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ

Юнусхожиева Нигора Элмурод кизи¹,
Мадатова Назира Абдугаффаровна²,
Хусаинова Райхона Ашрафовна¹

На основании данных государственных реестров лекарственных средств, изделий медицинского назначения и медицинской техники, разрешенных к применению в медицинской практике в Республике Узбекистан: № 24 от 2020, 25 от 2021, 26 от 2022, 27 от 2023 и 28 от 2024 года и данных DRUG AUDIT, проведен маркетинговый анализ урологических препаратов, зарегистрированных в Республике Узбекистан.

Анализ регистрации урологических препаратов на фармацевтическом рынке Республики Узбекистан показывает, что создание и внедрение в производство отечественных высокоэффективных урологических препаратов является весьма актуальным и перспективным.

Ключевые слова: анализ ассортимента, урологические препараты, DRUG AUDIT, лекарственные средства, фармацевтический рынок.

MARKETING ANALYSIS OF UROLOGICAL DRUGS

Yunuskhojiyeva Nigora Elmurod kizi¹,
Madatova Nazira Abdugaffarovna²,
Khusainova Raikhona Ashrafovna¹

Based on the data from the state registers of medicines, medical devices and medical equipment authorized for use in medical practice in the Republic of Uzbekistan: № 24 of 2020, 25 of 2021, 26 of 2022, 27 of 2023 and 28 of 2024 and data from DRUG AUDIT, there was conducted a marketing analysis of urological medicines registered in the Republic of Uzbekistan.

The analysis of registration of urological drugs in the pharmaceutical market of the Republic of Uzbekistan shows that the creation and introduction into production of domestic highly effective urological medicines is very relevant and promising

Key words: assortment analysis, urological drugs, DRUG AUDIT, medicines, pharmaceutical market.

CROCUS SATIVUS O'SIMLIGI GULCHANGCHISINING UCHUVCHAN KOMPONENTLARI TAHLILI

Maxmudova Shoxista Raximjonovna¹, Bobakulov Xayrulla Mamadiyevich¹,
Oxundedayev Baxodir Sotivoldiyevich¹, Xusainova Rayxona Ashrafovna²,
Nishanbayev Sabir Zaripbayevich¹

¹O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi instituti, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi, e-mail: sabir78@rambler.ru

²Toshkent farmatsevtika instituti, e-mail: xusainova_79@inbox.ru

Ilk bor Jizzax viloyati Baxmal tumanida yetishtirilayotgan Iridaceae oilasiga mansub, *Crocus sativus* L. o'simligidan «za'faron» (shafran) ziravorini tayyorlashda biochiqindi sifatida hosil bo'ladigan gulchangchisidan gidrodistillyatsiya usuli yordamida olingan efir moyi va bezinli ekstraktining uchuvchan komponent tarkibi gaz xromatmass-spektroskopik usul yordamida tahlil qilindi. Tahlil natijasiga ko'ra, efir moyi tarkibida 38 ta uchuvchan komponentlar, benzinli ekstrakt tarkibida esa 44 ta komponentlar identifikatsiya qilinib, bu esa efir moyi va ekstrakt umumiy miqdorining mos ravishda 92,5% va 93,3% tashkil qilishi aniqlandi.

Efir moyi tarkibidagi asosiy komponentlar feniletil spirti (19,3%), γ -krotonolakton (15,8%), 2-fenilatsetaldegid (12,4%), 4-metilenizoforon (5,7%), shafranal (3,9%), furfural spirt (3,1%), 2-atsetilpirrol (2,7%), 2-oksopropilatsetat (2,3%), furfural (2,2%) va palmitin kislota (2,2%) bilan identifikatsiya qilindi. Benzinli ekstraktining asosiy komponentlari: feniletil spirti (30,7%), 4-metilenizoforon (13,0%), γ -krotonolakton (6,3%), palmitin kislota (5,8%), enant kislota (5,2%), laurin kislota (5,2%), benzaldegid (2,7%), 2-fenilatsetaldegid (2,1%), izovalerik kislota (2,1%) va shafranal (1,9%) ekanligi aniqlandi. Efir moyi tarkibida efirlar, aldegidlar hamda monoterpenlarning miqdori yuqoriligi, benzinli ekstrakt tarkibida yog' kislotalar, monoterpenlar, efirlar va aldegidlar dominantlik qilishi aniqlandi.

Crocus sativus L. o'simligi gulchangchisining efir moyi va benzinli ekstraktining sifat va miqdoriy tarkibi sezilarli darajada farq qilishi aniqlandi, bu ehtimol, gidrodistillyatsiya usulidagi yuqori harorat ta'siri bilan bog'liq.

Shuningdek, o'simlik gulchangchisining efir moyi va benzinli ekstrakti tarkibida gultumshuqcha «za'faron» (shafran) tarkibidagi asosiy ta'sir qiluvchi, biologik faol birikmalar hisoblangan shafranal, izoforon hamda 4-oksoizoforon komponentlari mavjudligi aniqlandi.

Tayanch iboralar: Iridaceae, *Crocus sativus* L., ekma za'faron, uchuvchan komponentlar, gaz-xromatmass-spektroskopiya, efir moyi, benzinli ekstrakt.

Kirish. Iridaceae (Gulsapsardoshlar) oilasiga mansub *Crocus* (shafran, za'faron) turkumi o'simliklarining 80 ta turi ma'lum bo'lib, shundan O'zbekiston florasida ikkita turi *Crocus alata* Regel & Semenow va *Crocus korolkowii* Regel & Maw yovvoyi holda o'sishi bizga adabiyotlardan ma'lum [1, 2], ammo, bu turlar tarkibida aromatik, ta'm beruvchi hamda biologik faol moddalari kamligi sababli oziq-ovqat va farmatsevtika sanoatida qo'llanilmaydi.

Crocus turkumi orasida *Crocus sativus* L. (ekma za'faron) o'simligi o'zining biologik faol moddalarga boyligi bilan alohida o'ringa ega bo'lib, tabiatda yovvoyi holda uchramaydi. Shu bois ushbu o'simlik turini hozirda dunyo bo'yicha bir qator davlatlar, jumladan, Fransiya, Gollandiya, Italiya, Ispaniya, Turkiya, Shveysariya, Isroil, Hindiston, Eron, Pokiston, Xitoy, Misr, Birlashgan Arab Amirli, Yaponiya va Avstraliya kabi o'n beshdan ortiq mamlakatlarda, shuningdek, bugungi kunda O'zbekistonda ham yetishtiriladi [3].

Tuzilishi nuqtayi nazardan, *Crocus sativus* L. o'simligining generativ organi, ya'ni guli uchta dona sariq gulchangchi, uchta qizil rangli gul tumshuqcha hamda oltita binafsha rangli gultojibarglardan tashkil topgan (1-rasmga qarang). Qizil rangli gul tumshuqchasi yig'ib olinib quritiladi va «za'faron» (shafran) ziravori tayyorlanadi. Ushbu ziravor dunyodagi eng qimmat ziravorlardan hisoblanib, u turli xil kimyoviy va biologik xususiyatlarga ega. Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, za'faron tarkibida 150 dan ortiq uchuvchan aromatik birikmalar (asosan monoterpen aldegidlar – izoforon, shafranal hamda ularning izomerlari), shuningdek, tabiiy birikmalarning turli sinflariga mansub qutbli birikmalar (fenol birikmalar (fenolkarbon kislotalar, flavonoidlar), karotinoidlar, vitaminlar) uchraydi [2-6]. Mazkur birikmalar za'faron kimyoviy tarkibining asosini tashkil qilib, ularning ko'pchiligi farmakologik ahamiyatga ega [7]. Masalan, za'faronning o'simtga qarshi va antioksidant faolligi tarkibidagi to'yinmagan diterpen krotsin

MUNDARIJA	СОДЕРЖАНИЕ	CONTENS	
Farmatsevtika ishini tashkil qilish va iqtisodiyoti	Организация и экономика фармацевтического дела	Organization and economics of pharmaceutical business	
Qodirov Mirzoxidjon Muxtarovich, Djalilov Xabibulla Karimovich Yetakchi farmakopeyalarga muvofiq nistatin substansiyasi sifatini nazorat qilish ko'rsatkichlarini qiyosiy o'rganish	Қодиров Мирзохиджон Мухтарович, Джалилов Хабибулла Каримович Сравнительное изучение показателей контроля качества субстанции нистатина в соответствии с ведущими фармакопеями	Kodirov Mirzokhidjon Mukhtarovich, Djalilov Khabibulla Karimovich Comparative study of quality control indicators for nystatin substance in accordance with leading pharmacopoeias	5
Berdiyev Nozim Nusratillayevich O'zbekiston respublikasida paratsetamol dori vositalarini ro'yxatga olish holatini o'rganish	Бердиев Нозим Нусратиллаевич Изучение состояния регистрации лекарственных препаратов парацетамола в республике Узбекистан	Berdiyev Nozim Nusratillayevich Studying the state of registration of paracetamol drugs in the republic of Uzbekistan	11
Suyunov Nizom Davurovich, Alimova Xulkar Ravshan qizi, Xasanov Farxod Omonqulovich Yurak ishyemik kasalligida qo'llaniladigan dori vositalariga taklif ko'rsatkichlarini baholash	Суюнов Низом Давурович, Алимова Хулкар Равшан кизи, Хасанов Фарход Омонкулович Оценка показателей предложения лекарственных средств, используемых при ишемической болезни сердца	Suyunov Nizom Davurovich, Alimova Khulkar Ravshan kizi, Khasanov Farkhod Omonkulovich Assessment of indexes of medicines supply used in coronary heart disease	16
Yunusxojiyeva Nigora Elmurod qizi, Madatova Nazira Abdugaffarovna, Xusainova Rayxona Ashrafovna Urologik dori vositalarning marketing tahlili	Юнусхожиева Нигора Элмурод кизи, Мадатова Назира Абдугаффаровна, Хусаинова Райхона Ашрафовна Маркетинговый анализ урологических лекарственных средств	Yunuskhojiyeva Nigora Elmurod kizi, Madatova Nazira Abdugaffarovna, Khusainova Raikhona Ashrafovna Marketing analysis of urological drugs	22
Farmakognoziya va botanika	Фармакогнозия и ботаника	Pharmacognosy and Botany	
Maxmudova Shoxista Raximjonovna, Bobakulov Xayrulla Mamadiyevich, Oxundedayev Baxodir Sotivoldiyevich, Xusainova Rayxona Ashrafovna, Nishanbayev Sabir Zaripbayevich Crocus sativus o'simligi gulchangchisining uchuvchan komponentlari tahlili	Махмудова Шохиста Рахимжоновна, Бобакулов Хайрулла Мамадиевич, Охундедаев Баходир Сотиволдиевич, Хусаинова Райхона Ашрафовна, Нишанбаев Сабир Зарипбаевич Анализ летучих компонентов тычинок растения Crocus sativus	Makhmudova Shokhista Rakhimjonovna, Bobakulov Khayrulla Mamadiyevich, Okhundedaev Bakhodir Sotivoldiyevich, Khusainova Raykhona Ashrafovna, Nishanbaev Sabir Zaripbaevich Analysis of volatile components of Crocus sativus stamen	27
Sadikova Gulnoza Izzatilla qizi, Zuparova Zulfiya Axror qizi, Ismoilova Go'zaloy Muxitdinovna Dorivor pion asosida ishlab chiqilgan quruq ekstraktning aminokislotalar tarkibini aniqlash	Садикова Гулноза Иззатилла кизи, Зупарова Зулфия Ахрор кизи, Исмоилова Гузалой Мухутдиновна Определение аминокислотного состава разработанного сухого экстракта на основе пиона лекарственного	Sadikova Gulnoza Izzatilla qizi, Zuparova Zulfiya Axror qizi, Ismoilova Guzaloy Muxitdinovna Determination of amino acid composition of the developed dry extract based on peony officinalis	36